

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIVAVIY MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH

**I.Usmonov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Buxgalteriya hisobi ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**N.Mirzayev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Buxgalteriya hisobi ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**O.N.Xaitov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali assistenti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqola milliy iqtisodiyotda investitsiyalarning tutgan o‘rnini aholi jon boshiga o‘zlashtirilayotgan investitsiyalar orqali tasavvurga ega bo‘lish qulay va samarali yo‘llardan biri deb e‘tirof etiladi. Chunki, har qanday ichki va tashqi investitsiyaning samarasi aholi farovonligini yaxshilanishi bilan namoyon bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, markazlashgan moliyaviy resurslar, qimmatli qog‘ozlar, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo‘jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg‘armalari.

Bizga ma‘lumki, investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi hamda ular asosan moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalaridagi ustuvor loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltiriladi. Xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag‘batlantirish yo‘li bilan zamonaviy yangi texnologiyalar asosida mamlakat iqtisodiyoti salohiyatini oshirish va dunyo bozorida raqobat mavqeini mustahkamlash, boshqaruvning ilg‘or tajribalarini olib kirish masalalari ijobiy halqilinadi.

Shu bois, milliy iqtisodiyotda investitsiyalarning tutgan o‘rnini aholi jon boshiga o‘zlashtirilayotgan investitsiyalar orqali tasavvurga ega bo‘lish qulay va samarali yo‘llardan biri deb e‘tirof etiladi. Chunki, har qanday ichki va tashqi investitsiyaning samarasi aholi farovonligini yaxshilanishi bilan namoyon bo‘ladi. Shuningdek, mamlakatimizda aholi jon boshiga o‘zlashtirilayotgan investitsiyalarni tahlil etadigan bo‘lsak, natijalar ancha yaxshiligidan dalolat beradi, albatta. Ammo barcha viloyatlarda ham aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar bir maromda o‘zlashtirilyapti deb bo‘lmaydi.

Xususan bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil

28 yanvarda “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi. Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo‘nalish bo‘lib, o‘zida 100 ta maqsadni qamrab olgan. Anashu maqsadlar ichida investitsiyalarga bag‘ishlangan “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish”, deb nomlangan 26-maqsad qabul qilingan bo‘lib, unda Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha, «pastdan-yuqoriga» tamoyili asosida, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vazifalaridan biri hisoblanadi.

Amaldagi tartib qoidalarga binoan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish deganda, ajratilgan mablag‘larni ma‘lum bir investitsiya balki real aktivlarga investitsiyalarni jalb qiluvchi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Xususan, milliy iqtisodiyot va uning soha va tarmoqlari uchun yangi turdagi mahsulotlar va yangi texnologik bosqichlarni ishlab chiqish va o‘zlashtirishga mo‘ljallangan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish amaldagi usullarning eng muhim usullaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘rib turganimizdek, birgina poytaxtda qanchadan-qancha investitsiya loyixalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Ushbu investitsion loyihalarni o‘z vaqtida va to‘liqligicha moliyalashtirish avvalo loyiha jarayonini o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash bilan birga, mamlakatimizda hozirgi kunda juda dolzarb ijtimoiy muammo bo‘lgan ish bilan ta‘minlash muammosi qisman yumshaydi.

**Mavjud muammolar.** Amaliyotdan ma‘lumki, investitsiya loyihalalrini moliyalashtirishning bir necha turlari mavjud. Investorlar asosan loyihalalrni moliyalashtirishda, investitsion loyihaning mulkiy va idoraviy bo‘ysinishiga asosiy e‘tibor qaratiladi. Agar investitsiya loyihasi davlat ahamiyatiga ega bo‘lsa, moliyalashtirish manbalari markazlashgan investitsiya resurslari hisobiga amalga oshiriladi. *Markazlashgan moliyaviy resurslar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar.* Markazlashgan moliyaviy resurslar orqali investitsion loyihalarni moliyalashtirishda juda ko‘p va keng qo‘llaniladigan manba hisoblanadi. Biroq ushbu manba bo‘yicha muammolar ancha mavjud. Bunga ta‘sir etgan bosh omil, 2020 yildan boshlangan va butun dunyo iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan Pandemiya hisoblanadi. Pandemiya sabab, soliq to‘lovchilar o‘z vaqtida va to‘liqligicha belgilangan soliqlar va soliq funksiyasini bajaruvchi majburiy to‘lovlarni bajara olmadilar. Pirovardida davlat byudjetida to‘liq belgilangan summa shakllanmay qoldi. Buning natijasida ayrim investitsion loyihalarni biroz kechiktirishga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, byudjet mablag‘lari talon-taroj hollari ham qaror topdi.

O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, ushbu manbada ikkita muammo, birinchisi pandemiya sabab, ikkinchisi talon-taroj holati.

*Tijorat banklarining kredit resurslari hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar.* Ushbu manba ham investitsion loyihalarni moliyalashtirishda eng katta ulushga ega bo‘lgan manbalardan biri hisoblanadi. Kredit hisobiga moliyalashtirishda mavjud muammolar hambir qator bo‘lib, asosiylari quyidagilar hisoblanadi. Birinchisi, milliy valyutaning erkin valyutalarga nisbatan devalvatsiya darajasi yuqoriligi, shuningdek, inflyatsiya darajasining yuqoriligi. Ikkinchisi Markaziy bank tomonidan belgilanadigan qayta-moliyalash stavkasining yuqoriligi.

*Moliyaviy bozordan jalb qilinadigan moliyaviy mablag‘lar.* Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manba sifatida xorijiy mamlakatlarda moliyaviy bozordan jalb etish usuli juda yaxshi rivojlangan. Ya‘ni muomalaga aksiya va obligatsiyalarni chiqarish orqali. Bizda ham mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, moliya bozorining tarkibiy qismi bo‘lgan aksiya va obligatsiyalarni muomalaga chiqarish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Bu

manba bo'yicha ma'lum bir yutuqlarga ham erishdik desak bo'ladi. Ammo muammolar ham yetarlicha. Bizda birlamchi bozor yaxshi rivojlangan va rivojlanayotgan bo'lsa-da, biroq ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori yaxshi rivojlanmagan. Eng likvid aksionerlik jamiyatlari muomalaga chiqargan aksiyalarini qayta fond bozoriga chiqarish mexanizmi yaxshi ishlamayapti. Shu bois, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori bir oz rivojlanishga muxtojdir. Buni oldini olish uchun me'yoriy hujjatlarni biroz davr talabiga mos ravishda o'zgartirish lozim.

*Xo'jalik sub'ektlarining o'z mablag'lari, ya'ni xususiy investitsiyalar hisobiga moliyalashtirish manbalari.* Investitsion kompaniyalarining o'z mablag'lari boshqa korxonalar kabi, investitsion loyihani amalga oshirishda markaziy moliyaviy manbalardan bo'lishi lozim. Chunki, o'z mablag'lari moliyalashtirish manbasida qancha ko'p bo'lsa, boshqa hamkorlar oldida javob berish shunchalik oz bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, majburiyat deyarli yo'q bo'ladi. Qolgan moliyaviy manbalarda, markazlashgan moliyaviy manbadan tashqari qariyb barchasida investorning javobgarligi katta. Ushbu manbadagi muammolar shundaki, keyingi ikki yilda pandemiya sabab korxonalar o'rtasidagi oldi-sotdi operatsiyalari sekinlashgani bois, korxonalar ixtiyorida qoladigan moliyaviy manbalar ham pasaygani sabab investitsion loyihalarni moliyalashtirishda buning ham ulushi biroz pasayganligini guvohi bo'lamiz.

**Muammoni hal qilish usullari.** Muammoni hal qilishda asosiy usulbo'lib qiyoslash usulidan foydalaniladi. Chunki haqiqatni anglash uchun qiyoslash kerak, taqqoslash kerak bo'ladi. Shuningdek, tahlil va qisman tadqiq usullaridan ham foydalanildi.

**Taklif va tavsiyalar.** Tadqiqotda mamlakatimiz iqtisodiyotiga xalqaro moliya tashkilotlarining kreditlarini jalb etishni takomillashtirish qaratilgan qator ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. O'zaro foydali, samarali xalqaro investitsion loyihalarni tanlash, ekspertizadan o'tkazish va ularning ishlab chiqarishdagi nazariy qiymati bilan amaliyotdagi natijasini, ahamiyatini monitoring qilishning mukammal tizimini yaratish lozim.

2. Milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xalqaro kreditlarni ko'p mehnat talab qilinadigan tarmoq va sohalarga, xususan qayta ishlash, to'qimachilik, kimyo sanoati, elektronika yo'nalishlariga jalb etish ustuvor masalalardan hisoblanadi.

3. Xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda ekologik muammolarni hal qilishga alohida e'tibor berish lozim.

4. Milliy xo'jalikning ijtimoiy, siyosiy, ekologik va resurs imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtalarini aniqlash orqali uzoq muddatli iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish zarur. Ularni shakllantirishda xalqaro kredit tashkilotlarining kreditlaridan samarali foydalanish masalalarini ham to'liq aks ettirish lozim.

5. Xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan ajratilayotgan kreditlarni hududlarga jalb qilishda mahalliy hokimiyat organlari investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha hududlarning uzoq muddatli investitsiya dasturlarini ishlab chiqishlari va amaliyotga tatbiq etishlari lozim.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda hozirgi kunda olibborilayotgan investitsiya siyosati davr talabiga javob beradi, albatta. Ammo, yuqorida qayd etilgan xususiyatlarga ham e'tibor qaratisa milliy iqtisodiyot yanada jadal rivojlanib, aholining turmush darajasi yuksak darajalarga ko'tarilishiga qulay imkoniyat yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi

- O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvar. PF-60 -sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni.
  3. “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgust PF-5495-sonli Farmoni.
  4. Zayniddinov R.X. O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish yo‘llari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil.
  5. <https://mift.uz> O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, rasmiy veb sayti.